



KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA OILADA MA'NAVIY MUHITNI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI

Davronova D.S.

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Pedagogika va
psixologiya" kafedrasida dotsenti
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)*

Tayanch so'zlar: oila, farzand tarbiyasi, ma'naviyat, xalq an'analari, milliy tarbiya, jahon tajribasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy muhit, tarbiya sub'ektlari, ma'naviy kamolot, kompetensiyaviy yondashuv, kreativlik, evristik ta'lim.

Ключевые слова: семья, воспитание ребенка, духовность, народные традиции, национальное воспитание, мировой опыт, семейная педагогика, социальная среда, субъекты воспитания, духовная зрелость, компетентностный подход, творчество, эвристическое воспитание.

Key words: family, child upbringing, spirituality, folk traditions, national education, world experience, family pedagogy, social environment, subjects of education, spiritual maturity, competence approach, creativity, heuristic education.

Mamlakatimizda aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shuningdek, respublikamizda oila huquqiy sub'ekt maqomiga ega bo'lib, "Oila Kodeksi" orqali tartibga solinadi. [1]

Shu nuqtai nazardan yondashganda oila – ma'naviyatimiz tayanchi, farzand tarbiyasidagi ilk kamolot va ma'naviy tarbiya maskani.

Milliy tarbiya rivojida oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, oilada farzandlarning ma'naviy kamolotiga erishuvi uchun ijtimoiy pedagogik, psixologik jihatlarini o'rganish oila pedagogikasi sohasidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib, tadqiqotlarda milliy qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, yoshlarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Ma'naviy tarbiya sub'ektlari tizimiga oila, ta'lim muassasalari (maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus-xunar va oliy ta'lim), mahalla va korxonalar kiradi. Shubxasiz, bu tizimda oila instituti aloxida mavqe va o'ringa ega. Oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirish ahamiyatini tahlil qilishda qo'yidagi asosiy ikki jihatga e'tibor qilish kerak.

Birinchidan, ijtimoiy muhit va shart-sharoitlar ob'ektiv tarzda inson shaxsi shakllanishida etakchi omillardan biri sifatida maydonga chiqadi. Oila ma'naviyati tarbiya jarayonida ob'ektiv xususiyatga egadir.

Ikkinchidan, oila ma'naviy tarbiya sub'ektidir. Tarbiya tizimida oila ob'ekt va sub'ekt mavqelarida namoyon bo'lishi nisbiy bo'lib, ularning munosabati dialektik xarakterga ega. [11]

Alohida e'tirof etish joizki, obod turmush, farovon hayot, el va millat tinchligini kafolatlovchi omil va shart-sharoitlardan biri jamiyat bo'lagi bo'lmish oiladagi farovonlik, tinchlik-xotirjamlik va turmushning kam-ko'stsizligidir, bu oilaviy qadriyatlarning ko'lamini va qamrovi, so'zsiz oila ma'naviyatiga bevosita bog'liqdir. Oilaviy munosabatlar chin insoniyligining, yuksak ahloqiy talablar darajasida bo'lishining, ijtimoiy vazifalarini (funktsiyalarini) to'lato'kis bajarilishining asosiy shart-sharoiti va omili oilaviy ma'naviyatdir.

Biroq kompetentsiyaviy yondashuv asosida oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirish omillari, oilada farzand tarbiyasiga global internet tarmog'ining "TIK TOK", telegramm, instagramm va boshqa ijtimoiy tarmoqlarning "o'zgacha" ta'siri masalalari etarli darajada o'rganilmagan.

Ilmiy izlanishlarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, oila ma'naviyati oila a'zolarining shaxsiy ma'naviyatlariga asoslanib, millat ma'naviy qadriyatlarini ta'sirida yuksalib boradi. Oilada ma'naviy barqaror muhitni takomillashtirishda ota-ona va oilaning keksa avlod vakillari muhim rol o'ynaydi. Sababi oila a'zolarining har biri shaxs sifatida muayyan ma'naviy dunyoga ega bo'lib, ular o'rtasidagi yaqin munosabatlar, muloqotlar natijasida oilada o'ziga xos oilaviy ma'naviyat yuzaga keladi.

Amerikalik psixolog va psixoterapevt Virdjiniya Satir «Вы и ваша семья» kitobida "Oilal - butun olam mikrokozmosi. [13] Uni tushunish uchun oilani o'rganish etarli. Oilada mavjud bo'lgan hokimiyat, sirdoshlik, mustaqillik, ishonch, muloqot ko'nikmalari - hayotdagi ko'pgina xodisalar kaliti. Agar biz dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsak, oilani o'zgartirishimiz zarur", degan fikrlarni bildiradi. Virdjiniya Satir oilaviy an'analarni davom ettirishda, oiladagi muhim voqealarni belgilab beruvchi bir necha avlod vakillari tomonidan "oilal xaritasi"ni tuzish muhim ahamiyat kasb etishini alohida e'tirof etib o'tadi.

Fikrimizcha, oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda oiladagi munosabatlar va rollar taqsimotiga, milliy madaniy muhitga, hamda undagi an'analarga, milliy psixologiyaga, [10] asrlar davomida xalq ongiga saqlanib kelinayotgan tarbiya uslublariga alohida ahamiyat qaratish lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda oila ma'naviy ko'rg'on bo'libgina kolmay yosh avlod ta'lim tarbiyasining ilk maskanidir. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyokarashini belgilaydigan mezon va qarashlari yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir»

Darhaqiqat oila ma'naviyatida ota va onaning ma'naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona yuqori insoniylik va axloqiylik darajasi, ularning ijtimoiy hayotdagi roli va vazifalari farzand tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Oila ma'naviyat olamining debochasi sifatida o'zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, oliyanoblik, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat kabi ma'naviy kadriyatlarni o'zida mujassamlashtirishi bilan belgilanadi.

Bunday kadriyatlarining oilada e'zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma'naviy muxit va iqlimni yaratadiki, o'sib kelayotgan avlod sof qalbi va ongi shakllanishida o'ta ahamiyatlidir.

Xo'sh kompetensiyaviy yondashuv asosida oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirish omillari nimalardan iborat? -degan savol tug'ilishi tabiiy. Ilmiy adabiyotlarda «kompetensiya» hamda «kompetentlik» tushunchalari qo'llaniladi. Pedagog olimlar I.V.Lyoxina hamda F.N.Petrovalar «Kompetensiya» tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, kompetensia – «tegishli», «bilgili bir sohani biluvchi», «to'liq huquqqa ega», «muayyan bir shaxs yoki korxonaning to'liq huquqqa egaligi», «shaxsning bilimlari va tajribalari atrofidagi masalalar» - degan ma'nolarni bildirsa, kompetentlik tushunchasi o'z bilimlari va huquqlariga suyangan holda muayyan bir masalalarni hal etish va echa olishga loyiqligi, fikr iorita olish malakasiga ega ekanligini bildiradi.[5;6]

Biz oila pedagogikasi, oilada ma'naviy tarbiyani takomillashtirish masalalari to'g'risida fikr ioritganda kompetentli ota - ona farzand tarbiyasidagi ma'suliyatidan kelib chiqib, «muayyan bir shaxs tarbiyasida to'liq huquqqa egaligi», farzandlari bilimli va zakovatli bo'lishi uchun o'z bilimlari va tajribalariga tayanishi muhimligi nuqtai nazaridan yondashib, bugungi zamon talablariga javoban ota-onalarning salohiyati va ma'naviy etukligi, oilada ijobiy



psixologik muhitni shakllantirib, milliy, ma'naviy tarbiya samaradorligini va intensivligini ta'minlashga, ikkinchidan, farzandlarini etuk va barkamol inson bo'lib ulg'ayishida, shuningdek yurt ravnaqi va kelajak rivojlanishida ahamiyatli o'rin egallaydi.

Pedagogik jihatdan olib qaraganda kompetentli yondashuv asosida oilada ma'naviy muhitini barqarorlashtirish quyidagi komponentlardan iborat:

- yosh avlodni milliy va umuminsoniy yuksak madaniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash;
- ota-onalarni ta'lim-tarbiya ishlarini gumanistik pozitsiyadan boshqarishi; (tarbiya jarayonida bu asosiy fenomen bo'lib, tajribalarimizda ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyati susayib borayotganligi, boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga jiddiy e'tibor qaratib, yuqori sinflarga kelganda bolaga e'tibor("nazorati") yo'qligini nazarda tutdik).
- oilada farzand tarbiyasida erkinligini ta'minlash, rag'batlantirish, jazolash jarayonini me'yor darajasida tashkil etish, bunda ota-onalarning muloqot madaniyati, o'z ustida ishlashi, yangi axborotlar bilan tanishish masalasi va ularni bolalarning yosh individual xususiyatlardan kelib chiqib bilimlarini oshirib borishi;
- oilada ta'lim-tarbiya ishlarini muayyan tizim va evristik nuqtai nazardan kreativlik asosida olib borish alohida ahamiyatga ega.

Evrastika – grek tilidan olingan bo'lib, izlayman, topaman ma'nolarini ifodalaydi. [12] Mazkur metod doirasida ijodiy faoliyat usullari o'rganilib ushbu usullardan yangiliklarni kashf etish va ta'lim tarbiya jarayonini loyihalashda keng foydalaniladi. Oiladagi ta'lim tarbiya jarayonida pedagogik evrastikaning asosiy mohiyatini ota-onalarning ijodiy mahsuldorligi –g'oyalari, hukmlari, tarbiyaviy faoliyat natijasida vujudga kelgan xulosalar bilan belgilanadi. Ota-onalarning dunyoqarashining chuqurligi evrastik faoliyati natijasining mantiqiy asosini tashkil etadi. Ota-onalarning ijodiy tafakkurining kengligi va moslashuvchanligi unga o'z-o'zini hamda ijodiy xarakterdagi yondashuvlarni namoyon qilish imkonini beradi.

Demak oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda, ma'naviy shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiya tizimlari asosiy omillar hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya tizimlarning uzviy bog'liqligi, biri ikkinchisini taqozo qilishi ma'lum haqiqatlardir. Birortasidagi kemtik va kamchiliklar mavjudligi shaxs fazilatlaridagi ayrim qusurlarga olib keladi. Ta'lim mukammal bo'lsa-ku, tarbiya etarli bo'lmasa, yoki aksincha xolda ham baribir ko'zlangan maqsadga erishish mushkul bo'lib qolaveradi. [9]



Hozirgi kunda yoshlarimizdagi ma'naviyat, ahloq to'g'risidagi bilimlar doirasi etarli darajada bo'lsa-da, xayotda ularga amal qilmayotganlari, mensimayotganlari va hatto to'g'ridan-to'g'ri inkor qilayotganlari holatlarini uchratishimiz mumkin. Bu fikr kontseptsiyada ham ifodalangan: «Vatanga sadoqat, burch va ma'suliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa xar yili mustaqil xayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning xayotda o'z o'rinlarini topishda bir qator muammolar keltirib chiqarmoqda»(2).

Xulosa qilib aytganda, inson ma'naviy barkamol bo'lishi uchun, eng avvalo, jismonan sog'lom bo'lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji – kelajagini ta'minlovchi omildir. Shaxs ma'naviyati, uning dunyoqarashi, e'tiqodiga ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i va ko'rg'oni, mafkuraviy tarbiya omili va muhitidir. Binobarin, milliy g'oyamiz, mafkuramizga xos yuksak tuyg'ular ilk bor oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshiriladi. Oila uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan muqaddas an'analari orqali yoshlarda vatanga muhabbat, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, ilmga ishtiyoq, mehnatsevarlik ko'nikmalari shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: O'zbekiston, 2023. –<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son “Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori. <https://lex.uz/uz/docs>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. <https://lex.uz/acts/5344692>
4. Narbaeva T.K. Ta'lim tizimida yosh avlodni ijtimoiy himoyalashning pedagogik asoslari. Ped.fan. nomz. ... diss. – T.: 2009. -176 b.
5. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. –Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 252.
6. Mucurmanova O. va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. / o'zbek, ruc, ingliz tillarida / T.: “TURON - IQBOL”, 2019. – 844 b
7. Mucurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta'lim camaradorligi omili; monografiya / T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020. -184 b
8. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rmi: Fal. fan. nom. ... dis. avtoref. –T.: 2006. – 23 b.
9. Pardaeva O.M.Xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va samaradorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2020



10. Ochilova G.O Yoshlardagi tadbirkorlik motivatsiyasiga oilaviy biznes ta'sirining gender xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent 2020

11. National University of Uzbekistan Volume 4 | NUU Conference 2 | 2023 Google Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities DOI: 10.24412/2181-1385-2023-2-310-315 Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari 311 April, 2023 <https://nuu.uz/> International Scientific and Practical Conference

12. Pedagogik atamalar lug'ati. // tuzuvchilar: jamoa. – T.: Fan, 2008. –B. 144.

13. <https://www.google.com/>

РЕЗИОМЕ

Mazkur maqolada bugungi zamon talablariga javoban oilada ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda ota-onalarning salohiyati va ma'naviy etukligi, oilada ijobiy psixologik muhitni shakllantirib, milliy, ma'naviy tarbiya samaradorligini va intensivligini ta'minlashdagi roli, asrlar davomida xalq ongiga saqlanib kelinayotgan tarbiya uslublariga alohida ahamiyat qaratish lozimligi ilmiy - nazariy jihatdan yoritib berilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье рассматриваются потенциал и духовная зрелость родителей в стабилизации духовной среды в семье в ответ на требования сегодняшнего времени, их роль в формировании положительной психологической среды в семье и обеспечении эффективности и интенсивности национального, духовного воспитания. , методы воспитания, сохранившиеся в сознании людей на протяжении веков. Необходимость уделять этому особое внимание объяснена с научно-теоретической точки зрения.

SUMMARY

This article examines the potential and spiritual maturity of parents in stabilizing the spiritual environment in the family in response to the demands of today, their role in creating a positive psychological environment in the family and ensuring the effectiveness and intensity of national, spiritual education. , methods of education that have been preserved in the minds of people for centuries. The need to pay special attention to this is explained from a scientific and theoretical point of view.